

**Fuqaro aviatsiyasida uchuvchisiz uchish qurilmalaridan foydalanishga ruxsat berish
to‘g‘risidagi xulosa
PASPORTI**

1.	Ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatning nomi:	O‘zbekiston Respublikasi Fuqaro aviatsiyasida uchuvchisiz uchish qurilmalaridan foydalanishga ruxsat berish to‘g‘risidagi xulosa
2.	Amalga oshirilishi uchun ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatni olish talab etiladigan faoliyat (harakatlar):	O‘zbekiston Respublikasi Fuqaro aviatsiyasida uchuvchisiz uchish qurilmalaridan foydalanish
3.	Ariza beruvchilar toifasi:	Yuridik shaxslar
4.	Ruxsat etish tartib-taomillari sohasidagi vakolatli organ:	O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Fuqaro aviatsiyasi agentligi (“O‘zaviatsiya” agentligi)
5.	Ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatni olish uchun taqdim qilinadigan hujjatlar:	a) ariza; arizada quyidagilar ko‘rsatiladi: 1) ariza beruvchi to‘g‘risida ma’lumotlar: tashkiliy-huquqiy shakli ko‘rsatilgan to‘liq nomi; joylashgan joyi (pochta manzili); telefon raqami; elektron manzili; 2) fuqaro aviatsiyasining uchuvchisiz uchish qurilmasi haqida ma’lumot: nomlanishi (turi); belgilangan maqsadi; seriya raqami (zavod, identifikatsiya raqami va boshqalar); ishlab chiqarilgan sana; ishlab chiqaruvchining nomi; ishlab chiqaruvchi joylashgan joy; maksimal uchish vazni; o‘rnatilgan dvigatellar turi; o‘rnatilgan dvigatellar soni; dvigatel kuchi (tortish); radioelektron vositalar haqida ma’lumot; vakolatli organning radiochastota spektridan foydalanishga ruxsatnomasi; fuqaro aviatsiyasining uchuvchisiz uchish qurilmasi saqlanadigan manzil (joy); 3) fuqaro aviatsiyasining uchuvchisiz uchish qurilmalari operatorlari to‘g‘risida ma’lumot: F.I.O.; maxsus tayyorgarligi to‘g‘risida ma’lumotlar; fuqaro aviatsiyasining uchuvchisiz uchish qurilmasi operatorining o‘z vazifalarini bajarishga yaroqliligi to‘g‘risida tibbiy xulosa; 4) idoraviy vazifalar ro‘yxati: 1. _____;

		2. _____; b) uchuvchisiz uchish qurilmasiga mulk huquqi, mulkni sotish yoki ijaraga berish to'g'risidagi shartnomalar nusxasi; v) uchuvchisiz uchish qurilmasi uchun ishlab chiqaruvchining pasporti nusxasi yoki unga tenglashtirilgan hujjat (sifat sertifikat, muvofiqlik sertifikat); g) uchuvchisiz uchish qurilmasidan foydalanish bo'yicha ishlab chiqaruvchining hujjati (qo'llanma, yo'riqnoma, texnik tavsif) nusxasi; d) ariza beruvchining parvozlarni amalga oshirish bo'yicha qo'llanmasi.
6.	Arizani ko'rib chiqish uchun to'lanadigan yig'im miqdori:	Yig'im undirilmaydi
7.	Ruxsat etish xususiyatiga ega hujjat berilganligi uchun undiriladigan yig'im:	Bazaviy hisoblash miqdorining 69,5 baravari. Yig'im summasi quyidagi tartibda taqsimlanadi: 10 foizi — O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlarini rivojlantirish jamg'armasiga; 11,25 foizi — Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali davlat xizmatlarini ko'rsatganlik uchun, shuningdek, 0,5 foizi Yagona billing tizimi orqali davlat xizmatlari ko'rsatganlik uchun Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish jamg'armasining elektron hukumat va raqamli iqtisodiyotning idoralararo loyihalarini moliyalashtirish bo'yicha maxsus hisobvarag'iga; qolgan mablag'larning 60 foizi — vakolatli organning hisobvarag'iga, 40 foizi — O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Transport va logistikani rivojlantirish jamg'armasiga yo'naltiriladi.
8.	Arizani ko'rib chiqish muddati:	15 ish kuni
9.	Ruxsat beruvchi talablar va shartlar:	a) fuqaro aviatsiyasi uchuvchisiz uchish qurilmalarining parvozlari O'zbekiston Respublikasi samoviy hududida fuqaro aviatsiyasining va eksperimental aviatsiyaning parvoz qilish qoidalariga talablariga muvofiq amalga oshirilishi; b) zarur xavfsizlik qoidalariga rioya qilingan holda va Havo hududidan foydalanishning yagona boshqaruv tizimi organlaridan ruxsat olingandan keyingina fuqaro va davlat aviatsiyasining uchuvchisiz uchish qurilmalari, davlat aviatsiyasining uchuvchisiz aviatsiya tizimlariga O'zbekiston Respublikasi havo hududidan foydalanishga ruxsat berilishi; v) fuqaro aviatsiyasining uchuvchisiz uchish qurilmalari faqat ajratilgan havo hududidan foydalanishi; Fuqaro aviatsiyasining uchuvchisiz uchish qurilmalarini saqlashga qo'yiladigan umumiy talablar: a) uchuvchisiz uchish qurilmalarini saqlash uchun begonalar kirishi man etilgan va signalizatsiya vositalari (zarurat bo'lganda, videokuzatuv vositalari) bilan jihozlangan, harorat rejimi, to'g'ri tushadigan quyosh nurlarining, issiqlik va boshqa turdagi nurlanishning yorug'lik ta'siri, shuningdek, yong'inga qarshi xavfsizlik

		bo'yicha ishlab chiqaruvchi talablariga mos keladigan ixtisoslashtirilgan bino ajratish; b) uchuvchisiz uchish qurilmalarini ularning turiga mos keladigan maxsus konteynerlarda saqlash; v) uchuvchisiz uchish qurilmalarini qisman yoki demontaj qilingan holda, ularning darhol uchishini istisno qiladigan sharoitda saqlash; g) uchuvchisiz uchish qurilmalarini dala (ishlab chiqarish) sharoitida ularning turiga qarab maxsus joylash konteynerlarida akkumulyatordan alohida ajratilgan holda saqlash. Bunda joylash konteyneri muhrlangan bo'lishi va saqlash uchun mas'ul bo'lgan mansabdor shaxs nazorati ostida bo'lishi kerak; d) saqlash uchun mas'ul bo'lgan mansabdor shaxsga uchuvchisiz uchish qurilmasini tashlab ketish yoki boshqa shaxslarga berish taqiqlanadi.
10.	Ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatni berishda kelishiladigan organlar:	O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati
11.	Ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatning amal qilish muddati:	Cheklanmagan
12.	Izoh:	1. Fuqaro aviatsiyasida uchuvchisiz uchish qurilmasidan foydalanishga ruxsat berish to'g'risidagi xulosa uchuvchisiz uchish qurilmalaridan foydalanish bilan bog'liq faoliyatni amalga oshirish uchun beriladi. 2. Xalqaro fuqaro aviatsiyasi tashkilotining (IKAO) standartlari talablariga va tavsiya qilingan amaliyotga muvofiq "O'zaviatsiya" agentligi talabgorga ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatni berganlik uchun yig'im to'langan sanadan e'tiboran bir ish kunidan kechiktirmay uchuvchisiz uchish qurilmasidan foydalanishga ruxsat berish to'g'risidagi xulosa asl nusxasini beradi. 3. Uchuvchisiz uchish qurilmasidan foydalanishga ruxsat berish to'g'risidagi xulosa "O'zaviatsiya" agentligi direktori yoki "O'zaviatsiya" agentligi direktorining buyrug'i bilan vakolat berilgan mansabdor shaxs tomonidan imzolanadi va "O'zaviatsiya" agentligining muhri bilan tasdiqlanadi. 4. Uchuvchisiz uchish qurilmasidan foydalanishga ruxsat berish to'g'risidagi xulosa nusxasi "O'zaviatsiya" agentligida saqlanadi. 5. Uchuvchisiz uchish qurilmasidan foydalanishga ruxsat berish to'g'risidagi xulosa ikki yoki undan ortiq yuridik shaxslarga berilishi mumkin emas va boshqa shaxsga berilmaydi. 6. Ekspluatant amaldagi uchuvchisiz uchish qurilmasidan foydalanishga ruxsat berish to'g'risidagi xulosadan faqat o'z faoliyatini amalga oshirish maqsadlarida foydalanishi mumkin. 7. "O'zaviatsiya" agentligi belgilangan tartibda mustaqil ravishda uchuvchisiz uchish qurilmasidan foydalanishga ruxsat berish to'g'risida xulosa berish uchun kerakli

hujjatlarni va O'zbekiston Respublikasining boshqa davlat organlaridagi ma'lumotlarni axborot hamkorligi tizimi vositasida, shu jumladan elektron hujjat shaklida oladi.

8. "O'zaviatsiya" agentligi ekspluatant uchun belgilangan ruxsatnoma talablari va shartlariga rioya etilishini nazorat qiladi.

9. "O'zaviatsiya" agentligi tomonidan uchuvchisiz uchish qurilmasidan foydalanishga ruxsat berish to'g'risidagi xulosa berish yoki berishni rad qilish to'g'risida qaror ariza va unga ilova qilinadigan hujjatlar asosida qabul qilinadi.

10. Hujjatlarning baholanishida ularning butligi hamda ekspluatantga belgilangan faoliyatga doir ruxsat beruvchi talablar va shartlarga muvofiqligi tekshiriladi.

11. Hujjatlar baholanishi natijalariga asosan "O'zaviatsiya" agentligi ariza beruvchiga uchuvchisiz uchish qurilmasidan foydalanishga ruxsat berish to'g'risida xulosa beradi (yuboradi) yoki uni uchuvchisiz uchish qurilmasidan foydalanishga ruxsat berish to'g'risidagi xulosani berish rad etilganligi haqida tegishli qaror qabul qilingan sanadan e'tiboran bir ish kundan kechiktirilmagan holda yozma shaklda xabardor qiladi.

12. Ekspluatantning manzili o'zgarganda, uchuvchisiz uchish qurilmasi uni qayta jihozlash bilan bog'liq modifikatsiya qilinganda (nomi o'zgarganda), foydalanilayotgan uchuvchisiz uchish qurilmasi ro'yxatdan chiqarilganda, uchuvchisiz uchish qurilmasidan foydalanishga ruxsat berish to'g'risidagi xulosada ko'rsatilgan uchuvchisiz uchish qurilmasi operatori (operatorlari) to'g'risidagi ma'lumotlar o'zgarganda, ekspluatant yuqorida ko'rsatilgan ma'lumotlarni tasdiqlovchi hujjatlar bilan birga yetti ish kuni ichida "O'zaviatsiya" agentligiga xulosani qayta rasmiylashtirish uchun ariza berishi shart.

Ekspluatant tomonidan yuqoridagi talablar bajarilmaganda, fuqaro aviatsiyasining uchuvchisiz uchish qurilmasidan foydalanishga ruxsat etish to'g'risidagi xulosa to'xtatiladi.

13. Ekspluatant faoliyati uchuvchisiz uchish qurilmasidan foydalanishga ruxsat berish to'g'risidagi xulosada belgilangan ekspluatantning ruxsat beruvchi talablar va shartlarga joriy muvofiqligini baholash maqsadida inspeksiya tekshiruvlarini o'tkazish shaklida nazorat qilinadi. Inspeksiya tekshiruvining natijalari hisobotlar shaklida rasmiylashtiriladi.

14. Fuqaro aviatsiyasining uchuvchisiz uchish qurilmalaridan foydalanadigan ekspluatantlarning inspeksiya tekshiruvlari ikki yilda kamida bir marta o'tkaziladi.

15. Vakolatli organ arizani ko'rib chiqish muddati davomida amalga oshiriladigan o'rganishlar uchun xarajatlar (xizmat safari va yo'lda bo'lgan vaqt uchun kundalik xarajatlar, mehmonxonalarda yashash xarajatlari, transport xarajatlari, kirish vizasini rasmiylashtirish va sug'urta

		polisini sotib olish xarajatlari) haqiqiy xarajatlar summasi bo'yicha talabgor (ariza beruvchi) tomonidan yozma shartnomaga ko'ra qoplanadi.
--	--	--